

YOSHLAR BANDLIGI VA MEHNAT BOZRI MUAMMOLARI: O'ZBEKISTON MISOLIDA**Abdushukurova Sevinch Akramjonovna**

Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti. Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
yo'nalishi 2-kurs talabasi

Rashidova Xadicha Tursunaliyevna

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15800531>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar bandligi bilan bog'liq dolzarb muammolar: ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik hamda raqamli infratuzilma va hududiy tengsizliklar asosida tahlil qilingan. Stat.uz va boshqa rasmiy manbalarga asoslangan statistik ma'lumotlar yordamida ikki asosiy muammo ochib berilib, ularga ilmiy asoslangan yechimlar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar bandligi, ishsizlik, ta'lim, raqamli tengsizlik, mehnat bozori, hududiy farqlar.*

Yoshlar bandligi har qanday davlatning makroiqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotining muhim determinanti sifatida qaraladi. Mehnat bozori institutlari samaradorligi, iqtisodiy faollik darajasi va inson kapitali sifatining o'zaro bog'liqligi aynan yoshlar qatlamida yaqqol namoyon bo'ladi.


O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra¹, 15–30 yosh oralig'idagi yoshlar mamlakat aholisining qariyb 30 foizini tashkil qilmoqda. Bu demografik dividendni to'g'ri yo'naltirish uchun mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro muvozanatni yaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Iqtisodiy fanlarda mehnat resurslarini samarali taqsimlash bozor mexanizmlarining asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlar bandligining past darajasi strukturaviy ishsizlik, friksion ishsizlik va institutsional nomuvofiqlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Xususan, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlarning o'z sohasiga mos ish topa olmasligi, ularning ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilishida katta to'siqlarga sabab bo'lmoqda. Bu holat inson kapitalining to'liq realizatsiya qilinmasligi, ijtimoiy beqarorlik, hatto miqratsiya bosimlarining ortishiga olib keladi.

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va bilimga asoslangan tarmoqlarning rivojlanishi yangi mehnat ko'nikmalarini talab qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma va texnologik imkoniyatlar bo'yicha hududlar o'rtasidagi tafovutlar ham yoshlar bandligiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu maqolada aynan ikki muammo — ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik hamda raqamli va hududiy tengsizliklar — rasmiy statistik ma'lumotlar va grafik tahlillar asosida chuqur o'rganiladi hamda ularga iqtisodiy asoslangan yechimlar taklif etiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024).



1-rasm. Bitiruvchilar va ish bilan taminlanganlar 2020-2024 yoillarda.²

Ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi besh yilda bitiruvchilar soni muntazam oshib bormoqda. Ammo, shu bilan birga, ularning ish bilan ta‘minlanish darajasi yetarli darajada o‘shish sur‘atini ko‘rsata olmayapti. Bu holat ta‘lim tizimida o‘zlashtirilayotgan bilimlar va mehnat bozori talablarining uyg‘unlashmaganidan darak beradi (1-rasm).

Misol uchun, 2024-yilda 700 mingga yaqin yoshlar bitirgan bo‘lsa-da, ularning faqat 360 ming nafari ish bilan ta‘minlangan. Bu esa ta‘lim sifatini va kasbiy tayyorgarlikni zamonaviy bozor talablariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi (1-rasm).


Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-apreldagi PQ–257-sonli qarori bilan “Kasb-hunar va oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish” haqida qaror qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq, ta‘limda ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda mutaxassisliklar shakllantirish, ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish nazarda tutilgan.³

Ushbu muammoni hal qilish uchun, avvalo, o‘quv dasturlarini mehnat bozoridagi real talablar asosida yangilash zarur. Har bir oliy va kasb-hunar ta‘lim muassasasi bitiruvchilari bozor uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqaruvchilarning o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, kasbiy yo‘naltirish ishlari maktabdan boshlanishi lozim. Yoshlar o‘z qiziqishi, ijtimoiy ehtiyoj va iqtisodiy talablar asosida mutaxassislik tanlashi uchun davlat tomonidan kasb tanlashda ko‘maklashuvchi xizmatlar faol ishlashi zarur. Mahalliy hokimliklar huzurida “yoshlar mehnat birjasi” tizimi joriy etilishi mumkin.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

³ Mehnat.uz — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.



2-rasm. Yoshlarning ishsizlik darajasi qiymati (2020-2024).⁴

Ushbu diagrammada korinib turibdiki, yoshlar orasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi 15.2 foizdan 2024-yilga kelib 10.9 foizga kamayganiga qaramasdan, hali ham bu ko'rsatkich respublikadagi umumiy ishsizlik darajasidan yuqori. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yanada og'irroq holat (2-rasm).⁵

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida bu ko'rsatkich 14–16 foiz atrofida bo'lib qolmoqda. Bu holat infratuzilma, raqamli savodxonlik va zamonaviy ish formatlariga kirish imkoniyatining pastligidan dalolat beradi.

Ushbu holatni bartaraf etish maqsadida, 2022-yil 18-fevraldagi PQ–60-sonli Prezident qaroriga asosan, “Yoshlar bandligini ta'minlash milliy strategiyasi 2022–2026 yillarga mo'ljallangan” dasturi qabul qilingan. Unda yoshlar uchun maxsus bandlik dasturlari, grantlar, kreditlar va startaplar ko'rinishida moliyaviy ko'mak nazarda tutilgan.⁶

Muammoni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, hududiy tengsizliklarni kamaytirish kerak. Buning uchun, qishloq joylarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, IT-parklar, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan markazlar tashkil qilish dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlar uchun bepul onlayn kurslar, masofaviy treninglar va raqamli platformalarda ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan bunday tashabbuslar nafaqat ishsizlik darajasini kamaytiradi, balki iqtisodiy faollikni ham oshiradi

Xulosa va takliflar

Yoshlar bandligi O'zbekistonning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun strategik muhim omil hisoblanadi. Maqolada ko'rib chiqilgan ikki asosiy muammo – ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik hamda raqamli infratuzilma va hududiy tengsizliklar – yoshlar ishsizligining asosiy sabablari sifatida namoyon bo'ldi. Grafik tahlillar va statistik ko'rsatkichlar bu muammolar chuqur ildiz otganini ko'rsatmoqda.

Ta'lim tizimi bozor talablariga mos emasligi sababli ko'plab bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topolmayapti. Raqamli tengsizlik esa chekka hududlarda yashovchi yoshlar uchun zamonaviy mehnat shakllariga kirishni cheklab qo'ymoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar – xususan PQ–257 va PQ–60-son

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵ CEIC Data . Youth Employment and Unemployment Trends.

⁶ Mehnat.uz [6] — O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari .

Prezident qarorlari – muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlar bandligini oshirish faqat statistik yondashuv emas, balki tizimli, kompleks va innovatsion yondashuvni talab etadi. Ta’lim va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, hududiy imkoniyatlarni tenglashtirish, raqamli iqtisodiyotni barcha yoshlar uchun ochiq qilish orqali nafaqat ishsizlik darajasi kamayadi, balki mamlakatning mehnat resurslari ham to‘laonli safarbar etiladi.

Tahlillar asosida quyidagi asosiy amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. O‘quv dasturlarini mehnat bozoriga yo‘naltirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqish.
2. Qishloq hududlarda IT-parklar va raqamli ta’lim markazlarini tashkil etish.
3. Dual ta’lim tizimini joriy etish va rivojlantirish.
4. Yoshlar uchun davlat tomonidan raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha bepul kurslar yo‘lga qo‘yish.
5. Tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi startup grantlarini hududlarda kengaytirish.

REFERENCES

1. “Mehnat iqtisodiyoti” – M. Mullajonov (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiyasi bilan nashr qilingan darslik)
2. “Iqtisodiyot nazariyasi” – Paul Samuelson va William Nordhau
3. World Bank & ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) tahlillari
4. Stat.uz — O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024).
5. CEIC Data. Youth Employment and Unemployment Trends.
6. Mehnat.uz — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.
7. World Bank — Labor Market Overview for Uzbekistan (2023).
8. UNICEF Uzbekistan , Youth Employment Programs and Impact Analysis.
9. **"Raqamli iqtisodiyot"**, muallif: **B. A. Begalov**, 2023-yil.